



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 9-yanvar

9-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 8-yanvarda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 30-dekabrda 904-son qarori ijrosi haqida”gi 3-6-0-Q/25-sonli qarori haqida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 30-dekabrda 904-son hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 8-yanvarda 3-6-0-Q/25-sonli qarorlarini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 8-yanvarda 3-6-0-Q/25-sonli qarori asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar 2024-yil 30-dekabrda 904-son qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-aprelda PQ-108-son qaroriga muvofiq Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi negizida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi (keyingi o‘rinlarda – Oliy maktab) tashkil etilganligi;

belgilanishicha:

Oliy maktab “Biznesni boshqarish (MVA)”, korporativ va loyiha boshqaruvi, shuningdek, biznes va tadbirkorlik sohalari uchun magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha kadrlar tayyorlanadigan tayanch davlat oliy ta‘lim muassasasi hisoblanishi;

Oliy maktabda ta‘lim jarayoni davlat granti va to‘lov-kontrakt asosida kunduzgi, sirtqi, kechki va masofaviy ta‘lim shakllari bo‘yicha o‘zbek, rus, ingliz tillarida amalga oshiriladi hamda o‘qishni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarga davlat namunasidagi diplom berilishi;

Oliy maktab tinglovchilari davlat organlari va muassasalari, budjet tashkilotlari, davlat korxonalari, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslar hamda ustav fondida (ustav kapitalida) ushbu tashkilotlarning ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslar xodimlarining asosiy ish joyidagi lavozimi va o‘rtacha oylik ish xaqi o‘qishning butun davri uchun saqlab qolinishi;

Oliy maktab O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabining barcha huquqlari, majburiyatlari hamda tuzilgan shartnomalari bo‘yicha huquqiy vorisi hisoblanishi;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabining vasiylik kengashi 1-ilovaga muvofiq tarkibda tuzilganligi;

quyidagilar Vasiylik kengashining asosiy vazifalari etib belgilanganligi:

Oliy maktab hamda uning hududiy filiallari faoliyatini umumiy nazorat qilish va muvofiqlashtirish;

xo‘jalik va moliyaviy hisobotlarning to‘g‘riligini tekshirish va nazorat qilish uchun Taftish komissiyasini tuzish;

xorijiy davlatlarning oliy ta‘lim tashkilotlari bilan aloqa o‘rnatish, homiylik xayriyalari va grantlarni jalb etishga ko‘maklashish;

moddiy-texnik, o‘quv-metodik bazani takomillashtirish, binolar va hududiy filiallar infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

Oliy maktabda iqtisodiyotning turli tarmoqlari uchun dolzarb bo‘lgan mutaxassisliklar bo‘yicha kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash yangi va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi to‘g‘risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi magistraturasiga o‘qishga qabul qilishni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

quyidagilar:

Davlat budjeti mablag‘lari;

to‘lov-kontrakt asosida o‘qitishdan tushadigan mablag‘lar;

asosiy faoliyatdan va pulli xizmatlar ko‘rsatishdan, shu jumladan, o‘quv kurslari va seminarlarni tashkil etish, adabiyot materiallarini chop etishdan tushadigan tushumlar;

xo‘jalik, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatdan, startap loyihalarini amalga oshirishdan olinadigan mablag‘lar;

vaqtincha bo‘sh turgan mablag‘larni belgilangan tartibda tijorat banklari depozitlariga joylashtirishdan va moliya bozorining boshqa vositalaridan olinadigan daromadlar;

xalqaro tashkilotlarning grantlari va texnik ko‘maklari;

jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari;

qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar Oliy maktab faoliyatini moliyalashtirish manbalari etib belgilanganligi e‘tiborga olinsin.

3. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (Z.Axmadjonov), Oila va xotin-qizlar bo‘limi (Y.Mamitaliyeva), Yoshlar agentligi tuman bo‘limi (M.Mamasobirov) bilan birgalikda:

a) bir oy muddatda Oliy maktabning hududiy filiallarini aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun o‘quv kurslarini tashkil etishda foydalaniladigan davlat mulki bo‘lgan bino va xonalarga tekin foydalanish huquqi asosida joylashtirish choralari ko‘rsin;

b) doimiy ravishda Oliy maktabning hududiy filiallariga mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman hokimi yordamchilari uchun malaka oshirish kurslarini, shuningdek, aholi va tadbirkorlar uchun moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish hamda tadbirkorlik faoliyati asoslari va ko‘nikmalari bo‘yicha o‘quv kurslarini tashkil etishda aholi, xotin-qizlar va yoshlarni jalb etishga ko‘maklashsin;

v) barcha darajadagi hokim o‘rinbosarlarining malakasini oshirish ishlarini tizimli tashkil etish maqsadida:

har yili 20-fevralga qadar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi bilan birgalikda tashkil etiladigan qisqa muddatli malaka oshirish o‘quv kurslarida ishtirok etish uchun hokim o‘rinbosarlarining tarkibi tasdiqlangan ro‘yxat va reja-jadvallar asosida Oliy maktabga taqdim etilishini ta‘minlasin;

qisqa muddatli malaka oshirish o‘quv kurslarining o‘quv dasturlari va o‘tkaziladigan mavzuga oid seminarlarni takomillashtirishga qaratilgan takliflarni Oliy maktabga taqdim etib borsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari – iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i A.Abdusalomov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov